

O‘ZBEKISTONDAGI MAVJUD SELDOR XAVZALAR VA ULARNING  
TIPLARI

O.Q.Tobirov

*QDPI Geografiya va IBA kafedrasi o‘qituvchisi, PhD, Qo‘qon, O‘zbekiston*  
**F.F.Karimov**

*QDPI Geografiya va IBA ta’lim yo’nalishi talabasi, Qo‘qon, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekitondagi mavjud seldor xavzalar va ularning tiplari yoritilgan. Bunda asosan daryo, soy, kanallarga asosiy e’tibor qaratilgan.*

**Kalit so’zlar:** *sel, xavza, daryo, soy, kanal*

Sel hodisalari xar xil suv manbalariga xosdir. Ular daryolarda, tog‘ soylarida, kanallarda va boshqa mayda jilg‘alarda kuzatiladi. O‘zbekiston sharoitida sellar soylardan va kichik daryolardan ko‘proq o‘tadi. Sel xavzalarining xozirgacha to‘liq hisobi olinmagan. Binobarin, ularning ro‘yxati xech tuzilmagan.

Respublikamiz daryo, soy va jilg‘alarga juda boydir. Yer kurrasidagi yirik daryolar qatorida turuvchi Amudaryo va Sirdaryolar O‘zbekiston kokillarini yuvadi. Chirchik, Zarafshon, So‘x, Qashkadaryo, Surxondaryoning suvlaridan baxramand bo‘lgan joylardan oltin unadi.

Ajoyib suv rejimiga ega bo‘lgan Oxangaron, Isfayram, Shoximardon, To‘palang, Sherobod kabi bir necha daryolar O‘zbekiston hududida jilg‘a hisoblanadi. Bulardan tashqari, respublikamiz soy va mayda jilg‘alarga juda boydir. Faqat Farg‘ona vodiysida 6500 ga yaqin daryo, soy va jilg‘alar; Zarafshon daryosining o‘rta oqimida 120 ga yaqin soylar; Morguzar tog‘larining yon bag‘irlarida 100 ga yaqin jilg‘alar bor. Jilg‘alarning yalpi soni Chirchiq xavzasida 3470, Oxangaronda 1730, Qashqadaryoda 3120, Surxondaryoda esa 2200 dan ortiqroqdir.

O‘zbekiston seldor xavzalarini gidrografik tuzilishi, suv rejimi va sel hosil qilish xususiyatlariiga qarab quyidagi 3 gruppaga bo‘lsak bo‘ladi: Kichik daryolar gruppasi, tog‘ soylari gruppasi, kanallar gruppasi.

Kichik daryolar O‘zbekiston hududida sanoqlidir. Ular asosan respublikamizning sharqdagi va janubi sharqidagi baland tog‘lardan boshlanadi. Xavzasining o‘rtacha balandligi dengiz satxidan 2000—2500, ayrim cho‘qilarda esa 4500 metrgacha ko‘tariladi. Ko‘pchilik daryolarda 3500 metrdan balandroq bo‘lgan joylar ularning suv yig‘ish maydonining atiga 1 —

1,5 protsentini tashkil qiladi. Darxaqiqat, ularning havzasida o‘rtacha balandlikka ega bo‘lgan tog‘lar salmoqli egallaydi.

Tog‘ soylarining suv rejimi yuqorida tafsili ketirilgan kichik daryolar rejimidan sezilardi farq qiladi. Soylarda oqim yanvar, fevral oylarida ko‘paya boshlaydi, mart, aprel oylari toshqin davri hisoblanadi. May oyining ikkinchi yarmidan jilg‘alarda suv keskin kamaya boshlaydi. Avgustdan noyabrgacha bo‘lgan davrda soylar kamsuvliligi bilan xarakterlanadi, hatto ular ning ba’zilari qurib xam qoladi. Soy havzasining tabiiy-geografik sharoitiga qarab ulardagi toshqin bir vaqtida sodir bo‘lmaydi. Masalan, O‘zbekistonning janubig‘arbidagi kichik soylar mart oyida, Zarafshon daryosining o‘rta qismidagi Chirchik va Oxangaron daryolarining havzasidagi ko‘pchilik soylar aprel, Farg‘ona vodiysidagi ba’zi jilg‘alar may oyida sersuv bo‘ladi.

Soylarda sel yilning xamma fasllarida bo‘lishi mumkin. Pekin eng seldor davr fevraldan iyun oyigachadir. Bu jilg‘alardagi sellar o‘zining xususiyatlari bilan daryolardagi sellardan ma’lum darajada farq qiladi. Soy sellari keskin tasodifiyligi, qisqa muddati, suv miqdorining ko‘pligi (O‘rtacha yilligiga nisbatan) va qattiq oqimning xususiyatlari bilan ajralib turadi. Kuzatilgan sellarning 90 protsenti sharros yog‘inlar natijasida hosil bo‘lib, 2—5 soatgacha cho‘ziladi. Qorning tez erishidan paydo bo‘lgan sellargina cho‘ziluvchan bo‘ladi. Bunday sellar 1969-yilda O‘zbekistonning deyarli xamma jilg‘alarida sodir bo‘lib, ba’zilarida bir-ikki kungacha cho‘zilgan. Aksariyat soylarda sellarning suv sarfi ularning o‘rtacha yillik suv sarfidan 500—1000-martagacha ko‘p bo‘ladi. Ba’zan bu qiymat 2000 dan xam oshib ketishi mumkin.

Tafsili keltirilayotgan jilg‘alarda sellar ko‘pincha loyqa bo‘ladi. O‘rtacha balandlikdagi tog‘lardan boshlanadigan katta soylarning yuqori qismida toshli sellar ko‘proq uchraydi. Ularning o‘rta qismidagi sellar esa tosh va loyqaning qorishmasidan iboratdir.

Tog‘ soylarini gidrografik turining tuzilishi, suv rejimi va sel xususiyatlariga qarab uch turga bo‘lsak bo‘ladi:

Sersuv bo‘lgan katta soylar (To‘sinsoy, Zominsoy. Turnasoy). Ularning uzunligi 60—100 km o‘rtasida bo‘lib, o‘rta balandlikdagi tog‘lardan boshlanadi. Gidrografik tur bu soylarda ancha zichdir. Suv yig‘gich xavzaning maydoni 250—1500 km kv. O‘rtacha yillik suv sarfi bir sekundiga 1—2 m kub ni tashkil qiladi. Sel suvlari tosh aralashgan loyqadan iborat bo‘ladi.

O‘rtacha baland bo‘lmagan tog‘lardan boshlanuvchi 30—60 km uzunlikka ega bo‘lgan soylar. Suv yig‘gich xavzasining maydoni 30—250 km kv. Ularning o‘rtacha yillik suv sarfi sekundiga 50—1000 litrni tashkil qiladi. Sel suvlari soyning yuqori qismida tosh va loyqalar, quyi oqimida asosan loykadan tashkil

topadi. Urgutsoy, Bo'ysunsov, Langarsov, Mojrimsov soylari shular jumlasidandir.

Eng kichik soy va jilg'alar. Ular respublikamizda juda keng tarqalib, asosan eng past tog'lardan, adirlardan, tepaliklardan va tog' yon bag'irlaridan boshlanadi. Ularning uzunligi 30 km kv. Suv yig'gich xavzasining maydoni 30 kmdan ortmaydi. Gidrografik turi kam rivojlangan. Sel xodisalari bularda tez-tez bo'lib, nuqul loyqa suvdan iborat bo'ladi.

O'zbekistonda kanallar jula ko'p. Ularning yalpi uzunligi 100000 km ga yetadi. Magistral kanallar Farg'ona, Zarafshon, Toshkent vohalarida keng tarqalgan. Respublikamizdagi yirik kanallar katoriga Amu-Buxoro (223 km), Qarshi (200 km), Katta Andijon (110 km), Zang (90km) kanallarini ko'rsatsak bo'ladi. Kanallar orasida eramizdan avval qurilganlari xam oz emas. Bunday kanallar tabiiy jilg'alar tusina olgan.

Kuzatishlar O'zbekistonning yirik kanallarida xam sel xodisalari bo'lib turishini isbotladi. Ayniqsa, tog' yon bag'irlari va daryolarning yuqori terrasalari bo'ylab o'tgan magistral kanallar uchup sel xodisalari tipikdir. Ularning uzunligi, vodiylari o'zanlarining kattaligi bir xil emas, binobarin, suv sig'imi xam xar xildir. Ko'pchilik magistral kanallarda bu qiymat sekundiga 20-70 m kub, Amu — Buxoro kanali sekundiga 270 kub metr suv o'tkazadi.

Kanallardagi sel uning atrofidagi adirlar, tog' etaklari va yon bag'irlaridagi terresalari yo'nalgan suv to'lqinlardan xosil bo'ladi. Kichik jilg'alarping suvi kanalga quyilganda sel yanada kuchayadi. Sel suvining tuzilmasi cho'ziluvchanligi kanal xususiyatlariga, uning atrofidagi geografik muxitga, ayniqsa, kanalning bo'ylama nishabiga bog'lik. Kanallarda sel suvi to'lqinlanib, tez-tez qirg'oqdagi chiqib, toshib turadi. Sarflangan suvning o'rinni yo'l-yo'lakay to'lib boradi. Bunday ahvol sel xukmronlik qilgan davrda kanal bo'ylab bir necha bor qaytariladi.

O'zbekiston kanallaridan loykali sellar o'tadi. Toshli va tosh aralashgan loyqali sellar deyarli bo'lmaydi. Zarafshon vodiysidagi Narpay, Bulung'ur kanallari sel o'tuvchi jilg'alar uchun namunadir.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Askar Nigmatov, Anvar Rasulov, Odil Tobirov. Methodology for Assessing the Tourist Potential of the Nature of the Fergana Valley Using GIS Technologies and Experimental Methods. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022. 2268-2286. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S08.281>

2. Tobirov Odiljon. Methodology for Assessing the Tourist Potential of the Nature of the Fergana Valley using GIS Technologies and Experimental

Methods.	Preprints	2022,	2022090181.
<a href="https://doi.org/10.20944/preprints202209.0181.v1">https://doi.org/10.20944/preprints202209.0181.v1</a>			

3. Tobirov O., Nigmatov A. «Classification Of Geosystem For The Purpose Of Tourist Zoning And The Role Of Natural Geographical Approach» New York Science Journal 2022; 15(2). USA, pp. 7-13. (11.00.00; №5)
4. Tobirov O., Nigmatov A. «Natural Geographical Features Of Geographical Tourism In The Fergana Valley As A Part Of Uzbekistan» Researcher 2022; 14(2), USA, pp. 1-12. (11.00.00; №6)
5. Tobirov O., Nigmatov A. «Scientific And Theoretical Foundations Of The Concepts Of Tourism, Geography And Geographical Tourism» The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, Las Vegas, USA, March 13, 2021, pp. 1-10. [Journal Impact Factor (2019-5.348 , 2020-5.498, 2021-5.676) Journal Impact Factor For Current Year (2022- 6.233)]
6. Tobirov O., Nigmatov A. «The Methodological Basis of Geographical Tourism» Nature and Science, Volume 19, Number 5, May 25, 2021, USA, pp.19-25. (11.00.00; №4).
7. Tobirov O., Nigmatov A. «The Necessity To Develop Geographical Tourism In Diversification Of Tourism Industry» European Science Review, № 5-6/2021, Austria, pp. 9-16. (11.00.00; №2)
8. Tobirov O.Q., Nigmatov A.N. «Geografik turizmning metodologik asosi» Ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda geografiya fanini o'rni mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo'qon, 21-may 2021-yil, 174-181 b.
9. Tobirov O.Q., Nigmatov A.N. «Maktabgacha ta'linda Farg'ona vodiysiga agroturistik sayohat stendi orqali bolajonlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirish» Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari Toshkent, 10-iyun, 2021-yil 159-162 b.
10. Tobirov O.K., Абдувалиев Ҳ.А., Махмудов Б.Х. «Фарғона вилоятида экотуризмни шакллантириш ва унинг келажак истиқболлари» Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий-амалий семинари. Наманган 2015, 76-78 б.
11. Тобиров О. ГАТ технологиялари ёрдамида туристик-рекреацион зоналарни ажратиш (Фарғона водийси мисолида) // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, [3/2/1]. -Т.: 2021. -Б. 267-269.
12. Тобиров О., Нигматов А. ГАТ ёрдамида баҳоланганд табиат компонентлари ва комплексларини дала-экспедициявий тадқиқотлар билан

таққослаш // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, [3/2/1]. -Т.: 2021. -Б. 243-246.

13. Тобиров О.К. «Дам олиш кунида туризм» Принял участие в IX Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» г. Переяслав-Хмельницкий, Украина, 2016, 106-110 с.
14. Тобиров О.К. «Ўзбекистонда экотуризм имкониятлари ёки табиатни асрарашга янгича назар» Принял участие в IX Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» г. Переяслав-Хмельницкий, Украина 2016, 110-113 с.
15. Тобиров О.К. Загрязнение воздуха. Охрана окружающей атмосферы. Участника международной научно-практической конференции № XI. «Научные дискуссии о ценностях современного общества». Российская Федерация, г. Липецк, 2016 г. 34-39 с.
16. Тобиров О.К. Разумное пользование трансграничными водными ресурсами и потоками. Научный журнал «EUROPEAN SCIENCE» № 3(25) 2017 Moscow 2017. 31-36 с.
17. Тобиров О.К., Мадаминжонова Ш.А. «Географическое туристическое районирование территорий» «Наука, техника и образование» Москва, 2021. № 8 (83), 86-95 с.
18. Тобиров О.К., Нигматов А.Н. «Географический туризм: проблемы и решения на примере Узбекистана» XII Международный молодежный конкурс научных работ «Молодежь в науке: новые аргументы» г. Липецк, Россия, 2019 г., 25-33 с.
19. Тобиров О.К, Нигматов А.Н. «Глобал ва регионал туристик раёнлаштиришда табиий географик ёндашув зарурати» Замонавий географик тадқиқотларда худудларнинг ижтимоий-иктисодий ва инновацион ривожланиши, табиатдан оқилона фойдаланиш ва туризм масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Нукус, 2021, 19-24 б.
20. Тобиров О.К. “Географик маълумотлар тўплами” илмий рисола. “Адабиёт учқунлари” нашириёти. Тошкент 2017 йил. 82 б.
21. Тобиров О.К. «Ўзбекистон туманида экотуризмни ривожлантириш истиқболлари» XXI аср – интеллектуал авлод асири худудий илмий амалий конференцияси. Фарғона 2015 йил, 37-40 б.
22. Тобиров О.К. «Фарғона вилояти туризмини хорижий тажрибалар асосида ривожлантиришнинг истиқболлари» принял участие в VIII

Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» г. Переяслав-Хмельницкий, Украина, 2015, 136-139 с.

23. Тобиров О.Қ. «Фарғона водийси табиий географик кўрсаткичларини географик ахборот тизими (ГАТ) асосида туристик баҳолаш методологияси» География ва экология фанлар тизимининг долзарб муаммолари ва уларнинг ечимлари мавзусидаги Республика илмий–амалий конференция материаллари. Гулистон 13-14-апрел 2022-йил, 71-78 б.

24. Тобиров О.Қ. «Экотуризмни ривожлантириш масалалари» Ўзбекистонда география таълими методикаси ва топонимика: тарихи, муаммолари ва истиқболлари. Ўзбекистон география жамиятининг Республика илмий амалий конференцияси материаллари – Тошкент, 2019 йил, 92-94 б.

25. Тобиров О.Қ. «Экотуризмни ривожлантириш учун Фарғона вилояти ҳудудининг қулайлигини баҳолаш» Бухорода ислом маданиятини модернизациялаш ва туризмни ривожлантириш истиқболлари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. –Бухоро, 2020 йил, 739-751 б.

26. Тобиров О.Қ. Фарбий Фарғона минтақасининг демографик холати. XXIII Международной научно-практической конференции «Молодой ученый: вызовы и перспективы». Москва 2016 г. 398-408 б.

27. Тобиров О.Қ. География дарсларида ноанъанавий дарс усулларидан фойдаланиш. Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives 12th International symposium 26th January, Vienna 2017. 32-36 б.

28. Тобиров О.Қ. География дарсларида ўқув кинофильмларидан фойдаланиш. Принял участие в IX Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» г. Переяслав-Хмельницкий, Украина 2016. 158-163 б.

29. Тобиров О.Қ. Озон тешиги – халокат эшиги. Принял участие в IX Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» г. Переяслав-Хмельницкий, Украина 2016. 122-126 б.

30. Тобиров О.Қ. Фарғона водийси табиат компонентларининг туристик имкониятларини ГАТ ёрдамида комплекс баҳолаш // Eurasian journal of academic research. Том 2 №12. 2022. pp. 1019–1027. doi.org/10.5281/zenodo.7376464.